

## “MA’NAVIYAT” VA “QADRIYAT” – MA’NAVIY-AHLOQIY TUSHUNCHА SIFATIDA

Xidirov Xoshim Ibodullaevich

Jizzax politexnika instituti  
“Ijtimoiy fanlar” kafedrası  
dotsenti, f.f.d. (PhD)  
@xoshimxidirov2023

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada jamiyat hayotining asosiy mezonlaridan bir bo‘lgan ma’naviyat va qadriyatning ustuvor jihatlariga alohida to‘htalingan.

*Kalit so‘zlar:* Ma’naviyat, qadriyat, inson, ma’naviylik, qadriyatshunoslik, oila, Vatan, ta’lim, tarbiya va h.k.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются приоритетные аспекты духовности и ценностей, которые являются одними из главных критерииев жизни общества.

**Ключевые слова:** Духовность, ценности, человек, духовность, ценностная наука, семья, Родина, образование, воспитание и др.

**Abstract:** This article focuses on the priority aspects of spirituality and values, which are one of the main criteria of society’s life.

**Key words:** Spirituality, value, human, spirituality, value science, family, Motherland, education, upbringing, etc.

“Ma’naviyat” va “qadriyat” tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan falsafiy tushunchalardir. Qadriyatli ong, qadriyatli munosabat, qadriyatli ideal, qadriyatshunoslik tushunchalari insoniyat ma’naviy taraqqiyotining mahsuli, insonning o‘ziga, tabiiy va ijtimoiy borliqqa bo‘lgan yangicha munosabati sifatida vujudga keldi. Insoniyat borliqqa mifologik, diniy, ilmiy, badiiy, falsafiy munosabatda bo‘lishdan qoniqmagach, qadriyatli munosabatlar tipini ham yaratdiki, bu – qadriyatli dunyoqarashning shakllanishi va rivojlanishiga olib keldi. Qadriyatli dunyoqarash falsafiy dunyoqarashning muhim tarkibiy qismi sifatida vujudga keldi. SHu ma’noda aksiologiya ilmiy nazariya emas, balki falsafiy ta’limot sifatida falsafiy fanlar tizimida alohida o‘rin tutadi. Qadriyatli dunyoqarashning strukturasi, mohiyati va mazmuni idealistik falsafiy sistemalarda ancha to‘liq ishlandi. Qadriyat garchi insoniyat

ma’naviy taraqqiyotining mahsuli sifatida vujudga kelgan bo‘lsa ham, uning taraqqiyotida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Qadriyatli ong o‘zining butun mazmun-mohiyati bilan insoniyat ma’naviy olamini yangi mazmun bilan boyitdi, ma’naviy taraqqiyotining yangi yo‘nalishi bo‘lib qoldi. Sobiq sovet jamiyatida ma’naviyatni qadriyat sifatida tan olmaslik, bir tomondan, ma’naviyat, qadriyat tushunchalarini ilmiy asosda o‘rganishga imkon bermadi. Ikkinchi tomondan, inson va uning hayotining qadrsizlanishiga, ma’naviy qashshoqlikning kuchayishiga va nihoyat, iqtisodiy tanazzulga olib keldi. Respublikamiz rahbariyati milliy mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mustabid tuzum falsafasi, mafkurasi va siyosatidan qat’iy voz kechishga, ijtimoiy-siyosiy fanlar o‘qitishning butunlay yangi konsepsiyasini ishlab chiqishga alohida e’tibor bera boshladi. Xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirish, ajdodlarimiz ilmiy merosini keng targ‘ib etish orqaligina taraqqiyotimizga xalaqit berayotgan illat va nuqsonlarni bartaraf etishimiz mumkin.

Ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishga, yanada takomillashtirishga qaratilgandir. Respublikamizning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayotiga kirib kelgan va endilikda mustahkam qaror topayotgan Ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazlari, respublika Oila ilmiy-amaliy markazi, respublikamizda mutaxassis qadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi va boshqalar ana shu siyosatni hayotga tatbiq etishning samaralaridir. O‘zgargan tarixiy sharoit va milliy istiqlol tufayli xalqimiz tarixida boshlangan yangi davr yangicha falsafiy ta’limotlar yaratishni, mustabid tuzum dunyoqarashidan voz kechishni taqozo etadi. “Aksiologiya” nomi bilan sobiq ittifoqda birorta ham darslik yoki o‘quv qo‘llanmasi chop etilmadi. Hatto universitetning faylasuf, jamiyatshunos, tarixchi va ijtimoiy mutaxasislar tayyorlaydigan boshqa gumanitar fanlar bo‘limlarida ham aksiologiya bo‘yicha maxsus kurslar o‘qitilmas edi. Insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan ulug‘ mutafakkirlar jamiyat va shaxs hayotida ma’naviyatning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini, aql va tafakkurgina insonni boshqa mavjudotlardan farqlaydigan, uni aziz va qudratli qiladigan ilohiy (sotsial) sifat, belgi ekanligini alohida ta’kidlaganlar. Din insoniyatning olamni bilish, o‘zining olamdagи o‘rni va vazifalarini belgilash yo‘lidagi muhim kashfiyoti, ma’naviy taraqqiyot yo‘lidagi muhim qadami edi. Buddizm, xristianlik va islomning jahon dinlari sifatida vujudga kelishi insoniyatning ma’naviy taraqqiyotida, shubhasiz, katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Markaziy Osiyodan etishib chiqqan va o‘z asarlari bilan jahon ilm-fani, madaniyati, sivilizatsiyasi taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘sghan Muso al Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abulqosim Zamahshariy va boshqalar dinning insoniyat ma’naviy taraqqiyotidagi buyuk ahamiyatini e’tirof etganlar, diniy g‘oya va ta’limotlarga shubha bildirmaganlar, ayni vaqtida, ilmiy bilimlar va falsafiy qarashlar taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘sghanlar.

Bu o‘ziga xos ma’naviy jasorat edi. “Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql-idrok bilan ma’naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o‘zida mujassam etgan buyuk arboblar ko‘p bo‘lgan”. Ko‘hma SHarq falsafasi, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari falsafasi Islom g‘oyalari bilan uzviy bog‘liqlikda rivojlangan. Ming yillar davomida Markaziy Osiyo xalqlarining ma’naviy hayotida muhim rol o‘ynagan tasavvuf falsafasi islam g‘oyalari negizida vujudga kelgan, ajdodlarimizning dunyoqarashi, fikrlash tarzi sifatida qadrlangan. O‘rtta asrlarda din insoniyat ma’naviy hayotining buyuk rahnamosi, ma’naviy hayotining mazmuni va mundarijasini belgilovchi yagona kuch edi. Jamiyatning butun ma’naviy hayoti diniy asosda kechar va uning yo‘nalishini din arboblari – ruhoniylar belgilar edilar. Ruhoniylar asosan ma’naviyat masalalari bilan shug‘ullanar va butun jamiyatdagi ma’naviy muhitni belgilar edilar. Biroq XVI – XVII asrlarga kelib G‘arbiy Evropa ijtimoiy-falsafiy tafakkuri ijtimoiy-siyosiy turg‘unlik va qoloqlikka barham berish uchun ilmiy tafakkurni rivojlantirish, dunyoviy fikr va dunyoviy turmush tarzini qaror toptirish g‘oyasini ilgari sura boshladi. Bu bilan insoniyat ma’naviy taraqqiyotida yangi davr boshlangan: diniy va dunyoviy tafakkurning yonma-yon yashashi ma’anviy hayotda tub o‘zgarishlarga olib kelgan. “Hayotning mazmunini tushunishga turlicha yondashishlarning (afsuski, ular hamma vaqt ham tinch va osoyishta kechavermagan) yonma-yon mavjud bo‘lishi ehtimol, insoniyat dunyosining, ma’naviy hayotining boyligi va xilma-xilligini ta’minlab bergen hamda uning rivojlanishini rag‘batlantirib turgandir. Zero, faqat bir xil fikr yurituvchi odamlardan tarkib topgan jamiyat o‘z rang-barangligini va jozibasini yo‘qotgan bo‘lur edi”. Ma’naviy hayotda diniy aqidalar xukmronligiga chek qo‘yish, uning o‘rniga aql va tafakkur sultanatini qaror toptirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan XVII-XVIII asr G‘arbiy Evropa falsafasi diniy tushunchalardan voz kechdi. Xususan, ma’naviyat tushunchasi o‘rniga ong tushunchasini qo‘llay boshladi. Ongning kelib chiqishi, rivojlanish qonuniyatlari ilmiy asosda tadqiq etila boshladi. XVIII asrning 2-yarmi va XIX asr boshlariga kelib nemis klassik falsafasida insoniyatning ma’naviy taraqqiyoti masalalari, xususan, insonning bilish qobiliyatlari va imkoniyatlari, tafakkur taraqqiyotining eng umumiy qonuniyatlari chuqur o‘rganildi va klassik tarzda ta’riflab berildi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Ibodullaevich, K. K., & Bakhromovna, T. D. The United Kingdom has a special textbook for detecting facts of corruption.
2. Ibodullaevich, K. K., & Bahromovna, T. D. (2022). “Philosophical Paradigms in The Fight Against Corruption Today: Problems and Solutions. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 5, 160-164.
3. Ibodullaevich, K. K., & Mahmatkobil, O. (2022, March). A just leader is the basis of society. In *E Conference Zone* (pp. 59-61).
4. Ismatovich, M. S., & Ibodullaevich, K. K. (2022). Preventing Corruption Methods and Means. *Eurasian Scientific Herald*, 8, 66-68.